

PEDAGOGIK-METODIK MUAMMONING SATHLARI

Guliston davlat universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
Farrux Sidiqov

Bugungi kunda o'zbek tilidagi manbalarda esa "baholash bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning ta'lim oluvchilarda shakllanganlik darajasini tekshirish, o'lchash jarayoni" sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, baholash ilmiy adabiyotlarimizda umumiy qilib *pedagogik nazorat* deb nomlanadi. "Pedagogik nazorat – o'quvchilarga ta'lim berish, o'qitish va tarbiyalash natijalarini ilmiy asoslangan nazorat qilish tizimi".¹ Darhaqiqat, baholash umumiy o'rta ta'limda ta'lim oluvchilarning o'qitish jarayonida Davlat ta'lim standartlari va O'quv dasturlarida belgilangan malaka talablarini egallash darajasini aniqlovchi, tekshiruvchi mexanizm hamda mezon va tartiblardir.

Pedagogik nazorat ta'lim jarayonida bir qancha vazifa va funksiyani bajaradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, pedagogik nazorat quyidagi vazifalarga ega: ta'limiy vazifa, tarbiyaviy vazifa, baholash vazifasi, diagnostik vazifa, bilim olish ishtiyoqini o'stirish vazifasi, shaxsiyatini rivojlantirish vazifasi.² Bulardan kelib chiqib, baholash tizimining ta'lim jarayonidagi asosiy vazifalarini muayyanlashtirish mumkin.

Baholash jarayoni aniq maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Ana shu belgilangan maqsadga muvofiq baholash jarayonida tekshiriladigan domen, sub-domen, konstrukt va topshiriqlar soni va metodikasi hamda baholash mezonlari belgilab olinadi. Shuning uchun, avvalo, baholashdan qanday maqsad ko'zlanganini aniqlab olish va shunga ko'ra baholashni loyihalashtirish lozim. Odatda, baholash jarayonini o'tkazishda ikki maqsad nazarda tutiladi: o'quvchilarni rivojlantirish va o'quvchilarni sinash, saralash.

Shuning uchun ham baholash maqsadiga muvofiq foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni, tuzilishi va metodikasi hamda mavzular qamroviga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

O'quvchilarni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan baholash jarayonida muayyan kichik mavzular yuzasidan o'quvchilarning bilim, ko'nikma, va malaka (BKM) larini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalaniladi. O'quvchilarni sinash, saralash maqsadida amalga oshiriladigan baholashda yirik bo'limlar yoki o'quv yili davomida egallangan BKM va kompetensiyalarini tekshirishga, ularni saralashga qaratilgan topshiriqlardan foydalaniladi.

Ma'lumki, pedagogik nazorat olinishi, maqsad va vazifasi hamda mavzular

¹ Матякубова З.Н. Ўқувчилар билимини баҳолашда кўп танлов жавобли тест тошириқларидан фойдаланиш методи(умумий биология мисолида): пед.фан.номз. ... дис. –Т.: 2000. – 132 б.; Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademnashr 2020, 11-bet

² J.Hasanov va boshqalar. Pedagogika. –Toshkent. "Noshir", 2011. 488 b. (398)

qamroviga ko'ra o'zaro farqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda baholash (pedagogik nazorat) kim tomonidan o'tkazilishiga ko'ra, yakuniy davlat attestatsiyasi, ichki nazorat, jamoa nazorati va tashqi nazorat kabi turlarga ajratiladi. Shu bilan birga, har bir fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mavzular qamroviga ko'ra joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlariga ajratiladi.³

Jahon tajribasida baholash nazariyasi mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan, ta'lim jarayonida baholashning bir qancha turidan foydalaniladi. Xususan, pedagogik o'lchovga oid tadqiqotlarda baholashning formativ, diagnostik, dinamik, sinoptik, ipsativ, kompleks, normaga asoslangan, mezonlarga asoslangan, summativ turlari ajratilgan.⁴

Summativ baholash o'quvchilarning muayyan fan yoki fanlar yuzasidan o'quv choraklari davomida, yoki muayyan o'quv yili davomida, yoki butun umumiy o'rta ta'lim davomida o'zlashtirgan, egallagan BKM va kompetensiyalarini tekshirish, baholash jarayoni. Bunga choraklik baho uchun o'tkaziladigan sinovlar, o'quv yili davomida o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash uchun o'tkaziladigan imtihonlar, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari hamda oliy ta'limga qabul imtihonlari kiradi. Bunday sinovlarni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarni sinash, xulosalash hamda saralash, keyingi ta'lim bosqichiga o'tishi uchun tanlov vazifasini o'tash kabilar. Shuning uchun ham bunday sinovlarning ta'limga ta'siri sezilarli.

Summativ baholash maqsadidan kelib chiqib o'quvchining ta'lim olishiga turtki vazifasini o'taydi. O'quv choragi va o'quv yili oxirida o'tkaziladigan imtihonlar mazmuni va metodikasi ta'lim jarayoniga muayyan hajmda ta'sir o'tkazsa, umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilaridan olinadigan yakuniy davlat attestatsiyasi yoki katta motivatsiya kuchiga ega oliy ta'limga kirish testlari mazmuni va metodikasi butun umumiy o'rta ta'limning maqsad va metodikasiga aylanib ketishi mumkin. Ta'lim sifatini baholash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hisobotlaridan ma'lumki, agar juda katta ta'sir kuchiga ega sinovlarning mazmuni va test topshiriqlari metodikasi ta'lim berishning bosh maqsadi bilan hamohang bo'lmasa, o'rta ta'limda o'qitish va summativ baholash bir-biridan uzilib qoladi. Natijada jamiyatda "imtihon uchun o'rgatish" ga mo'ljallangan muqobil ta'lim paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy hayoti, xususan, ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash kerakki, Garvardda o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, o'quvchi va talabani majburiy standartlashtirilgan testlardan o'tish uchun tayyorlash ularning o'qitishning bosh maqsadiga aylanib qoladi. O'qituvchi va ta'lim oluvchida stressli holat keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Bular esa summativ baholashni tashkil etishda, uning mazmuni, format va topshiriqlari metodikasini belgilashda ehtiyotkorona, aniq statistik tahlillarga asoslanib amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi. Saralash, xulosalash, tanlov maqsadida amalga oshiriladigan summativ baholashning ishonchliligi va validligi, shaffofligi va adolatliligiga bir qancha omil

³ X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet. 252

⁴ <https://www.toppr.com/bytes/types-of-assessment>

ta'sir etadi, chunki bunday imtihonlar ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan murakkab jarayon.⁵

Bizningcha, summativ baholash jarayonining validligi, shaffofligi, ishonchliligiga ta'sir etuvchi omillardan ham iborat.

Pedagogik o'lchovga oid tadqiqotlardan ma'lumki, har qanday baholash o'lchovini ishlab chiqishdan oldin uni loyihalashtirish kerak bo'ladi. Loyihalashtirishda baholash maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va mezonlari belgilab olinishi zarur, zero biror o'rinda xatolik ketsa, baholash ta'limga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Ma'lumki, "baholash metodi – o'quvchi yoki talabanning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini, shaxsiy sifati darajalarini belgilashdan iborat bo'lgan pedagogik jarayon".⁶ Bu jarayonni to'g'ri amalga oshirish uchun, avvalo, baholashni loyihalashtirib olish lozim. Bunda o'lchovning domen, sub-domen va konstruktleri aniqlashtirib olinadi. Ya'ni dastlab imtihonning maqsadidan kelib chiqib baholanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar majmui, qolaversa, har bir sub-domenning konstruktleri – har bir malakaning qanday xususiyatlari tekshirilishi aniqlashtirib olinadi. Keyin esa baholash formati, test topshiriqlari spesifikatsiyasi (tafsilotlari) ishlab chiqiladi, shundan so'ng tafsilotlar asosida tekshirilishi lozim bo'lgan xususiyatlarni baholaydigan, o'lchaydigan topshiriqlar, testlar shakllantiriladi. So'ngra bir necha bosqichli tajriba-sinovidan o'tkazilib, ularning validligi, ishonchliligi, ahamiyatliligi darajasi aniqlanib etalon shaklga keltirilgach baholash jarayonida foydalanish uchun taqdim etiladi. Bir so'z bilan aytganda, baholash metodlari va mezonlari asosida topshiriqlar ishlab chiqilib, aprobatsiyadan o'tkaziladi, ularning sifati ko'p bosqichli ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng amaliyotga tatbiq etiladi. Ana shunda baholashning ta'limga salbiy ta'sirlarini olib keluvchi xatoliklarning oldi olinadi.

Eng muhimi, baholashda foydalaniladigan topshiriqlarning shakli va metodikasiga alohida e'tibor berish kerak. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, pedagogik nazorat yozma ish, suhbat, laboratoriya ishi va test shakllarida o'tkaziladi. Bu shakllar ta'lim jarayonida o'quvchining BKM sini baholashda faol foydalaniladi, ammo yozma ish, suhbat, testlar-sinovlarida qo'llanadigan topshiriqlarning formati, mazmuni, soni va metodikasi farqli, shuning uchun ham baholash maqsadidan kelib chiqib, topshiriqlarni shakllantirishga alohida e'tibor bilan yondashish, o'ziga xos metodikasini tanlash kerak.

Umumiy o'rta ta'limning amaldagi ta'lim kontekstida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalari asosan test topshiriqlari yordamida tekshirib, baholanib kelmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimida qariyb 30 yillik testdan foydalanish tajriba bo'lsa-da, test metodikasi takomillashtirilmadi. "Test"

⁵ Mandatory Testing and News in the Schools: Implications for Civic Education. A Report from the Carnegie-Knight Task Force on the Future of Journalism Education. https://shorensteincenter.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory_testing_and_news_in_schools_2007.pdf

⁶ Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318 b.

deyilganda, faqat yopiq testlar – to‘rtta variantli muqobil javobli testlar tushunildi hamda faqat shundan foydalanildi.

Ta‘lim kontekstida turli test topshirig‘i qo‘llanmadi, mazmuni va metodikasi takomillashtirilmadi, mavzu doirasida deyarli tadqiqot olib borilmadi. Bu yillar davomida bitiruvchi sinflarning fanlar yuzasidan ko‘nikma va malakalarini tekshirish yuzasidan muammolar to‘planib qolishiga olib keldi. Davlat boshqaruv tizimi yangilanishi bilan bir qatorda barcha sohalarda islohotlar ketmoqda. O‘quvchilarni ta‘lim bilan bog‘liq xalqaro baholash monitoring tizimlarida (PIRLS, PISA, TIMSS, ICILS) ishtirokini ta‘minlash yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur baholash dasturlarining namunaviy test topshiriqlari yordamida o‘tkazilayotgan tajrib-sinovlari natijalari test tizimining mazmuni va metodikasi bo‘yicha bir qancha vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda.

Umuman, baholash jarayonini pedagogik-metodik muammo sifatida o‘rganib, uning ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sirini cheklab, ijobiy ta‘sirini oshirish shart. Buning uchun amalga oshiriladigan baholash maqsadini aniqlab olish, fanning o‘qitilish maqsadini o‘rganish, pedagogik o‘lchovlarning nazariy va metodik asoslariga tayanib topshiriqlarni tuzish metodikasini takomillashtirish, topshiriqlarni aprobatsiyadan o‘tkazib, qayta tahrirlash, etalon variantni shakllantirish, baholashda foydalaniladigan topshiriqlarni etalon bilan qiyoslash lozim, so‘ngra amalda qo‘llash mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.toppr.com/bytes/types-of-assessment>
2. J.Hasanov va boshqalar. Pedagogika. –Toshkent. “Noshir”, 2011. 488 b. (398)
3. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademnashr 2020, 11-bet
4. Mandatory Testing and News in the Schools: Implications for Civic Education. A Report from the Carnegie-Knight Task Force on the Future of Journalism Education. https://shorensteincenter.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory_testing_and_news_in_schools_2007.pdf
5. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318 b.
6. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet. 252
7. Matyakubova Z.N. O‘quvchilar bilimini baholashda ko‘p tanlov javobli test toshiriqlaridan foydalanish metodi (umumiy biologiya misolida): ped.fan.nomz. ... dis. –T.: 2000. – 132 b.;